
"VATANPARVARLAR" HARBIY-SPORT MUSOBAQASI BO'LIB O'TDI

Bugun Toshloq tumani hokimligi, tuman Mudofaa ishlari bo'limi, Yoshlar ishlari agentligi, "Vatanparvar" tashkiloti hamda SHXO 48982-sonli harbiy qismlar hamkorligida Mudofaa vaziri kubogi uchun "Vatanparvarlar" harbiy-sport musobaqalarining tuman bosqichi o'tkizildi.

Unda o'quvchi-yoshlar musobaqa nizomiga muvofiq "Safda qo'shiq aytish", "Temur tuzuklari", "Mohir mergan", "Harbiylashtirilgan estafeta", "Jabrlanuvchiga birinchi yordam ko'rsatish" shartlari bo'yicha o'zaro bellashdilar. Musobaqada uyushmagan yoshlar jamoasidan Yakkatut jamoasi 1-o'rinni qo'lga kiritib viloyat bosqichiga yo'llanma oldi. 10 -, 11- sinflar o'rtasida 33-umumta'lim maktab jamoasi 1-o'rinni qo'lga kiritib viloyat bosqichiga chiqdi.

Yakunda faol ishtirokchilar tuman hokimligi tomonidan qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

2023-03-06 18:06:20